

UMUMIY SAVOLLAR

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» kursiga kirish

1. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» kursi nimani o'rganadi?
2. Kurs oldiga qanday maqsad va vazifalar qo'yilgan?
3. Nima uchun adabiy til milliy tilning oliy formasi sanaladi?
4. Adabiy til qanday formalarda yashab, faoliyat ko'rsatadi?
5. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» kursining qanday bo'limlari bor? Ularda nimalar haqida bahs yuritiladi?

Fonetika haqida umumiy ma'lumot

6. Fonetikaning obyekti nima?
7. Fonetik birliklarga nimalar kiradi?
8. Fonetik birliklarni qanday maqsadlarda o'rganadi?
9. Segment va supersegment birliklar qanday farqlanadi?
10. Fonetik birliklarning shakllantiruvchi va tanituvchi vazifalarini qanday tushunasiz?
11. Fonetika so'zi nima?
12. Monolateral va belateral birliklar qanday farqlanadi?
13. Fonetikaning qanday turlari bor?
14. Umumiy fonetika nimani o'rganadi? Xususiy fonetika-chi?
15. Tasviriy (sinxron) va tarixiy (diaxron) fonetikaalrning farqi nimada? Bu sohada ishlagan va ishlayotgan tilshunoslardan kimlarni bilasiz?
16. Qiyosiy va eksperimental fonetikalarda nimalar tadqiq qilinadi? Bu sohaga oid ishlardan qaysilarni bilasiz?

Hozirgi o'zbek adabiy tili konsonantizmi

17. Konsonantizm nima?
18. Hozirgi o'zbek adabiy tili konsonantizm qanday undoshlardan tarkib topgan? Ularning soni nechta?
19. Tovush fokusi nima? Uning ahamiyati?
20. O'zbek tilining qaysi tovushlari ikki fokusli? Sababi?
21. Undosh fonemalar qaysi belgilar asosida tasnif qilinadi?
22. Artikulatsiya o'rniga ko'ra undoshlar tasnifi?
23. Artikulatsiya usuliga ko'ra undoshlar tasnifi?
24. Un paychalari ishtirokiga ko'ra undoshlar tasnifi?
25. Ovoz va shovqin munosabatiga ko'ra undoshlar tasnifi?
26. O'zbek tili konsonantizmidagi munozarali masalalar?

Fonetik hodisalar

27. Fonetik hodisalar deganda nimani tushunasiz?
28. Kombinator omillari nima? Ular fonemaning qanday ottenkasini yuzaga keltiradi?
29. Assimilatsiya va akkomodatsiya qanday farqlanadi? Ularning qanday turlari bor?
30. Pozitsion omillarga nimalar kiradi? Ular fonemaning qanday ottenkalarini shakllantiradi?
31. Pozitsion o'zgarishlarning qanday turlari bor?
32. Kombinator va pozitsion omillar fonetik jarayonda aralash ishtirok etishi mumkinmi?
33. Spirantizatsiya nima?
34. Sintagmatik omillarga nimalar kiradi?
35. Qanday holatlarda va nima sababdan so'z boshida, o'rtasida yoki oxirida ba'zan tovush orttiriladi?
36. Proteza, epenteza va epiteza nima?
37. Qanday holatlarda va nima sababdan so'z tarkibidagi ayrim tovushlar tushib qoladi?
38. Tovush tushishining qanday turlari bor?
39. Metateza nima?
40. Dissimilatsiya nima? Uning qanday turlari bor?
41. Geminatsiya nima?

Bo'g'in

42. Bo'g'in nima?
43. Bo'g'in tuzilishning qanday xususiyatlari bor?
44. Bo'g'in markazi nima?
45. Bo'g'inning qanday tiplari bor?
46. Bo'g'inga oid qanday tasniflarni bilasiz?
47. Bo'g'inning til va nutqdagi ahamiyatlari nimalardan iborat?
48. Sillabema va sillabika deganda nimalar anglashiladi?

Aksentuatsiya va intonatsiya

49. Aksentuatsiya nima?
50. Urg'uning qanday tiplari bor?
51. So'z urg'usining fonetik tabiati nima?
52. O'rniga ko'ra so'z urg'usining qanday turlari bor?
53. Erkin va bog'langan urg'ular qanday farqlanadi?
54. Harakat qilish belgisiga ko'ra urg'uning qanday turlari bor?
55. Ko'chadigan va ko'chmaydigan urg'ular qanday farqlanadi?
56. Sintagma urg'usi nima?
57. Ayiruv urg'usi, uning qanday turlari bor?
58. Intonatsiya nima?
59. Intonatsiyaning qanday prosodik elementlari bor?
60. Intonatsiyaning turlari?
61. Intonatsiyaning tildagi roli?

Amaldagi (kirilcha) va yangi (lotincha) o'zbek yozuvlarining grafik tavsifi

62. Amaldagi (kirilcha) o'zbek yozuvining fonografik xarakterini qanday tushunasiz?
63. Bu yozuv qanday komponentlardan tashkil topgan?
64. Harfiy belgilar tizimiga nimalar kiradi?
65. Alifbo nima?
66. Grafema nima?
67. Nima uchun grafema bilateral hodisa sanaladi?
68. Grafemaning ifoda mazmun planlarini (ifodalovchi va ifodalanuvchilarini) nimalar tashkil etadi?
69. Grafemaning qanday tiplari bor?
70. Fonografema.
71. Logografemalar qanday farqlanadi?
72. Monograf, digraf va trigraflar nima?
73. Monosemantik va polisemantik grafemalar qanday farqlanadi?
74. Analitik, sintetik va sinonim grafemalarni qanday tushunasiz?
75. Orfografik belgilar va signalizatorlar nima? Ular yozuvda qanday vazifalarni bajaradi?
76. Yangi (lotincha) o'zbek yozuvi alifbosi qachon qabul qilindi?
77. 1993- va 1995-yillarda tasdiqlangan alifbolar o'zaro nimasi bilan farqlanadi?
78. Yangi (lotincha) o'zbek yozuvining grafik tavsifida o'ziga xos qanday jihatlar bor?
79. Amaldagi (kirilcha) va yangi (lotincha) o'zbek yozuvining grafik tizimlarida qanday tafovutlar uchraydi?

Orfografiya

80. Orfografiya nima? U grafikadan qanday farqlanadi?
81. Orfografiya qoidalariga asos bo'lgan qanday printsiplarni bilasiz?
82. Fonetik va fonematik printsiplar qanday farqlanadi?
83. Fonematik va morfologik printsiplarning o'xshash va farqli jihatlari nimada?
84. Grafik printsipga qanday holatlar amal qilinadi?
85. Qanday holatlarda tarixiy-an'anaviy printsiplarga amal qilinadi?

86. Differentsiatsiya printsiptini qanday tushunasiz?
87. Shakliy-an'anaviy yozuvda nimalarga amal qilinadi?
88. Uslubiy-semantik prinsih.

Orfoepiya

89. Orfoepiya nima?
90. Orfoepiyaning adabiy tildagi ahamiyati?
91. Unli tovushlar orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz?
92. Unlilar qanda ypozitsiyada ingichka talaffuz qilinadi?
93. Unlilar qanday undoshlar ta'sirida yo'g'on talaffuz qilinadi?
94. B, d undoshlari qanday pozitsiyada jarangsiz p, t tarzida talaffuz etiladi?
95. J, z undoshlari qanday o'rinlarda jarangsizlanadi?
96. B,q undoshlarining sirg'aluvchi v va g' ga o'tishi qanday holatda yuz beradi?
97. Qanday paytlarda o'zak oxiridagi k undoshi g ga q undoshi g' ga o'tadi?
98. G undoshi bilan boshlangan affikslar qanday so'zlarga qo'shilganda –ka, -kan, -qa, -qan tarzida talaffuz qilinadi?
99. Qaysi so'zlar o'zagidagi «o» fe'l yasovchilar qo'shilganda «a» ga o'tadi?
100. Boshqa tillardan olingan o'zlashma so'zlar orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz?

Leksikologiya

101. Leksikologiya nimani o'rganadi ?
102. Leksika nima ?
103. Leksikologiyaning maqsadi va vazifalari haqida ma'lumot bering.
104. Leksikologiyaning qanday turlari bor ?
105. Leksikologiya tilshunoslikning qaysi bo'limlari bilan aloqada bo'ladi ?
106. Nima uchun so'z nominativ birlik sanaladi ?
107. Eksik so'zlar va grammatik so'zlar qanday farqlanadi ?
108. *Leksema, nomema, semema* atamalarini tushuntiring.
109. Leksemaning ifoda va mazmun planlari haqida ma'lumot bering.
110. Tub va yasama so'zlarning ifoda planlari qanday farqlanadi?
111. Leksemaning tashqi va ichki formalari haqida ma'lumot bering.
112. Leksemaning ifoda va mazmun planlari dialektikaning qaysi kategoriyalariga mos ?
113. Leksemaning yaxlit bir butun ekanligi nimalarda namoyon bo'ladi ?
114. Leksemaning leksik birlik sifatidagi asosiy belgilarini tushuntiring
115. Leksemaning semantik tarkibiga nimalar kiradi ?
116. Leksik ma'no nima ?
117. Fonetik so'z nima ?
118. Denotat, referent nima ?
119. Signifikat nima ?
120. Valentlik haqida ma'lumot bering.
121. Leksik ma'no bilan so'zning nomi o'rtasidagi bog'lanishni qanday tushunasiz ?
122. Leksik ma'no va tushuncha haqida ma'lumot bering, leksik ma'noning lingvistik kategoriya, tushunchaning esa logik kategoriya ekanligini tushuntiring.
123. Leksemaning semantik tarkibida leksik ma'nodan tashqari yana nimalar bo'lishi mumkin ?
124. Ifoda semalari va turkumlik semalari haqida ma'lumot bering.
125. Sema va semema haqida ma'lumot bering.
126. Semalar ma'no xususiyatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi ?
127. Atash (denotativ) semalari nima ? Ifoda va mazmun semalari-chi ?
128. Ideografik semalarning integral va differensial semalarga bo'linishini tushuntiring.
129. Termin, uning ifoda va mazmun planlari haqida ma'lumot bering.
130. Terminlarda leksik ma'no bilan tushunchaning teng kelish holatlarini tushuntiring.
131. Uzual va okkazional ma'nolar qanday farqlanadi ?
132. Nima uchun uzual ma'no til birligi, okkazional ma'no esa nutq birligi sanaladi ?
133. Okkazional ma'nolar qanday yuzaga keladi ?
134. Okkazional ma'no uzual ma'noga aylanishi mumkinmi ?

135. Birorta badiiy asar tilidan uzual va okkazional ma'nolarda qo'llangan leksemalarni toping.
136. Leksik monosemiya hodisasini qanday tushunasiz ? Leksik polisemiyaning qanday xos xususiyatlari ?
137. Monosemiya hodisasi qanday lug'aviy birliklarga xos ?
138. Polisemiyaning yuzaga kelishi qanday sodir bo'ladi ?
139. Ko'p ma'nolilikka olib keluvchi lisoniy (lingvistik) va nolisoniy (ekstralingvistik) omillar haqida ma'lumot bering.
140. Ma'no taraqqiyotining qanday yo'llari bor ?
141. Metafora yo'li bilan ma'noning ko'chishi.
142. Vazifadagi o'xshashlik asosida ma'noning ko'chirilishi.
143. Metanimiya yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi.
144. Sinekdoxa yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi.
145. Leksik ma'no miqdorining ortishi
146. Leksik ma'no hajmining o'zgarishi: ma'noning kengayishi va torayishi.
147. Leksik ma'no miqdorining o'zgarishida polisemiya va omonimiyaning yuzaga kelishi.
148. Sinonimiya nima ?
149. Sinonimiya hodisasining so'z turkumlariga munosabati qanday ?
150. Sinonimik qator va dominant haqida ma'lumot bering.
151. Leksik sinonimlarning qanday turlari bor ?
152. Ma'no sinonimlari, uslubiy sinonimlar va nutqiy sinonimlar qanday farqlanadi ?
153. Qanday holatlarda kontekstual sinonimlar yuzaga keladi ?
154. Absolut sinonimlar yoki leksik dubletlar haqida ma'lumot bering.
155. Qanday holatlarda leksemalar sinonimik munosabatda bo'lmaydi ?
156. Sinonimiya va polisemiya o'rtasida qanday bog'lanish mavjud ?
157. Sinonimiya hodisasi tilning qaysi sathlarida uchraydi ?
158. Sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi rolini tushuntiring.
159. Antonimiya nima ? Antonimik juftlik-chi ?
160. Antonimiya hodisasining so'z turkumlariga munosabati qanday ?
161. Kontekstual antonimiya haqida ma'lumot bering.
162. Qanday holatlarda antonimiya hodisasi yuz bermaydi ?
163. Antonimiya va enantiosemiya hodisalarini tushuntiring.
164. Antonimiya va polisemiya o'rtasidagi bog'lanishni tushuntiring.
- Antonimiya hodisasi bilan bog'liq qanday munozali masalalarni bilasiz ?
165. Antonimiya hodisasining mezon sifatida qaraladigan «mantiqiy markaz» haqida ma'lumot bering.
166. Antonimlardan qanday uslubiy vosita sifatida foydalaniladi ?
167. Omonimiya nima ?
168. Lug'aviy omonimiyaning qanday turlari bor ?
169. Leksik omonimiyaning turlari haqida ma'lumot bering.
170. Omonimlar va omoformalar (omonim omoleksemalar va omoforma omoleksemalar) qanday farqlanadi ?
171. Omonimlarning so'z turkumlariga munosabati haqida ma'lumot bering.
172. Omonimlar qanday yuzaga kelgan ?
173. Omonimiya va polisemiya qanday farqlanadi ?
174. Omonimlarga yondosh bo'lgan qanday hodisalar bor ?
175. Omonim va omoformalarning uslubiy vosita sifatidagi roli haqida aytib bering.
176. Qanday hodisa paronimiya sanaladi ?
177. Paronimlar va kvaziomonimlar qanday farqlanadi ?
178. Paronimlar va omonimlar qanday farqlanadi ?
179. Paronimlar va omofonlar qanday farqlanadi ?
180. Paronimlar va so'z variantlari qanday farqlanadi ?
181. Paronimiya o'ldirilgan qanday masalalar munozarali bo'lib qolmoqda ?
182. Paronimiya hodisasining nutqqa ta'siri bormi ?
183. Paronomaziya nima?